Ayrim xorijiy tadqiqotlarda saylovda ishtirok etish maqsadida tashkil qilinayotgan siyosiy partiyalarning faoliyat maqsadlariga ham e'tibor qaratish zarurligi ko'rsatilgan. R. Uigton o'z tadqiqotida AQShda mavjud siyosiy partiyalar dasturlari va maqsadlarining mamlakat konstitutsiyasiga qanchalik mosligi masalasini ko'rib chiqib, sudlar tomonidan siyosiy partiyalarning dasturiy maqsadlari yoki elektorat manfaatlari AQSh konstitutsiyasiga zid kelgan holatlarda uni sudlar tomonidan bekor qilish zarurligini qayd etadi [19]. Ushbu fikr orqali muallif "zid kelgan holatlar" deganda konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan partiyalar haqida emas, balki o'z maqsadlarini umumkonstitutsiyaviy prinsiplarga zid tarzda shakllantirgan siyosiy partiyalar haqida so'z yuritgan. Shunga o'xshash yondashuv Y. Marselning tadqiqotlarida ham o'rganilgan [20].

Yuqoridagilardan tashqari siyosiy partiyalarning elektoral funksiya mazmuniga yana quyidagi vazifalar kiradi: saylovoldi tashviqotini uyushtirish, o'z nomzodlarini ko'rsatish, saylovchilar imzolarini to'plash, saylovoldi platformalarni (dasturlarni) tayyorlash, saylovga qadar va saylovdan keyin tashviqot ishlarini olib borish, ovoz berish jarayonini kuzatish va saylov natijalarini sarhisob qilish.

Tadqiqot natijalari tahlili

Tahlilimiz kompleks va tizimli bo'lishi uchun partiyalar elektoral funksiyasining milliy qonunchilik asoslariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonuni 1-moddasiga binoan, siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy iro-

dasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir.

Bizningcha, ushbu qonunchilik ta'rifi partiyaning muhim funksiyasi bo'lmish elektoral funksiyasini yetarlicha aks ettirmaydi, zero, aynan shu funktsiya tufayli davlat hokimiyati uchun rasmiy kurash olib boriladi.

"Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasiga muvofiq: "Siyosiy partiyalar qonunda belgilab qo'yilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, davlat hokimiyati organlari saylovlarida ishtirok etish huquqiga ega". Demak, qonun chiqaruvchi bilvosita bo'lsa ham siyosiy partiyalar maqomiga ega bo'lgan barcha jamoat birlashmalarining elektoral funksiyalarini mustahkamlagan. Shu munosabat bilan biz saylovlar orqali davlat hokimiyati uchun kurashda ishtirok etish siyosiy partiyaning asosiy belgisi sifatida qonunchilikda mustahkamlanishi lozim, degan fikrni qo'llab-quvvatlaymiz.

Shuningdek, elektoral munosabatlarni huquqiy tartibga solish mexanizmini takomillashtirishning maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shu bilan birga, biz qabul qilinadigan barcha uzviy tashkil etilgan yuridik vositalar tizimini nazarda tutamiz, ulardan foydalanish elektoral munosabatlarga samarali maxsus huquqiy ta'sirini ta'minlaydi. Mazkur huquqiy mexanizmlar saylov jarayonidagi barcha muhim munosabatlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Bundan shunday xulosa chiqadiki, siyosiy partiyaning asosiy vazifalaridan biri – siyosiy tizimning eng muhim aktori sifatida oldindan ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun saylov kampaniyasida ishtirok etadi. Shuning uchun saylovlarda ishtirok etish nafaqat siyosiy partiyaning asosiy vazifasi, balki ijtimoiy burchi hamdir.

Ko'pgina Yevropa mamlakatlarida siyosiy partiya – siyosiy birlashma sifatida saylovga kirgan parlament fraksiyasi, uning vakillari

parlamentga saylangandan keyingina siyosiy partiyaning ro'yxatdan o'tkazishi mumkin (masalan, Shveysariya).

G'arbiy Yevropada parlament saylovlarida quyidagilar ishtirok etishi mumkin: rasmiylashtirilgan siyosiy partiyalar (Portugaliya, Polsha); siyosiy partiyalar va birlashmalar (Avstriya, Shvetsiya, Niderlandiya, Belgiya, Lyuksemburg, Italiya, Ispaniya, Finlandiya, Germaniya); siyosiy partiyalar, uyushmalar va mustaqil nomzodlar (Buyuk Britaniya, Fransiya, Daniya, Norvegiya, Shveysariya, Malta) [23].

Yuqoridagi xorijiy tajriba va xalqaro standartlar shuni ko'rsatadiki, ko'p davlatlarda siyosiy partiya tashqari tashabbuskor guruhlar yoki fuqarolar ham mustaqil ravishda o'z nomzodini saylovlarda qo'yishi mumkin. Mamlakatimizning siyosiy hayotida saylovlarga bo'lgan e'tibor va aholining siyosiy-huquqiy madaniyati ortib borishi saylov jarayonida passiv qatnashuvchi subyektlar sonini oshirish zaruratini qo'yadi.

Bizningcha, saylovchilarning tashabbuskor guruhlaridan deputatlikka nomzodlar ko'rsatish institutini O'zbekistonda qayta tiklash maqsadga muvofiq sanaladi. Ushbu institutni joriy qilish maqsadida Saylov kodeksining 37-moddasini quyidagi tahrirda bayon etish taklif qilinadi: *"O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod, Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod, mahalliy kengashlar deputatligiga nomzod ko'rsatish huquqiga siyosiy partiyalar va ushbu kodeksda belgilangan tartibda saylovchilarning tashabbuskor guruhlariga ega"*.

Xorijiy mamlakatlar saylov huquqi amaliyoti va tajribasidan ma'lumki, vakillik organlariga saylovlarda nomzod ko'rsatish huquqi siyosiy partiyalardan tashqari fuqarolarga, saylov bloklariga, siyosiy assotsiatsiyalarga, mehnat tashkilotlari singari turli subyektlarga tegishli bo'lishi mumkin.

Ushbu subyektlar orasida saylov bloklari (siyosiy koalitsiyalar) alohida ahamiyatga ega. Chunki barcha siyosiy partiyalar ham parlament saylovlarida belgilangan minimal "to'siq"dan o'ta oladigan darajada ovoz to'plash imkoniga ega bo'lmasligi mumkin. Ayniqsa, saylovlarda qanchalik ko'p siyosiy partiya ishtirok etsa, bu imkoniyat shunchalik pasayib ketadi.

Saylov natijalariga ko'ra, imkon qadar ko'proq ovoz olish hamda fraksiya tuzish imkoniga ega bo'lish maqsadida ikki yoki undan ortiq siyosiy partiyalar saylov jarayoni davrida bitta blokka birlashishi orqali siyosiy koalitsiya tashkil etishi mumkin. YXHTga a'zo 57 mamlakatning saylov qonunchiligi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu tashkilotga a'zo 40 ta mamlakat qonunchiligida saylov bloklari (siyosiy koalitsiya) nomzod ko'rsatish huquqiga ega [21].

Ushbu ro'yxatga Avstriya, Belgiya, Ispaniya, Italiya, Portugaliya, Germaniya, Turkiya, Ozarbayjon, Armaniston, Gruziya kabi mamlakatlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Saylov bloklari (saylov koalitsiyasi) masalasi S. Golder [22], E. Tilman [23], R. Ibenskas [24], R.A. Kandiba [25], S.S. Zaikin [26], A.V. Petrov [27] kabi tadqiqotchilar ilmiy ishlarida o'rganilgan bo'lib, uning siyosiy jarayonlarda qo'llanishi demokratik yondashuv sifatida e'tirof etilgan.

Ko'p partiyaviylik tizimi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, kelajakda yangi tashkil etilgan yoki yetarli siyosiy qo'llab-quvvatlashga ega bo'lmagan, dasturlari o'zaro yaqin bo'lgan siyosiy partiyalarga vakillik organlarida yetarli o'rinni egallay olish imkonini ta'minlash maqsadida milliy saylov qonunchiligimizga vakillik organlariga nomzod ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan subyektlar qatoriga yangi institut "saylov bloklari"ning huquqiy asoslarini mustahkamlashni taklif etamiz.

Bizningcha, *"saylov bloki – saylov kampaniyasi rasmiy e'lon qilingandan keyin ikki yoki undan ortiq siyosiy partiyalar-*

ning bo'lajak saylovlarda umumiy saylovoldi dasturi asosida birgalikda ishtirok etishi maqsadida ixtiyoriylik asosida birlashgan birlashma".

Yana bir muhim masala siyosiy partiyalarni moliyalashtirish masalasiga e'tibor qaratish zarur. O'zbekistonda saylov bilan bog'liq jarayonlarni moliyalashtirish Saylov kodeksining 17-bobi 98-, 99- va 100-moddalarida belgilangan normalar asosida amalga oshiriladi. Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish masalalarini huquqiy tartibga solishga qaratilgan maxsus qonun O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi Qonuni sanaladi.

"Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi Qonunning 8-moddasi birinchi qismi talablariga ko'ra, "Siyosiy partiyalarning saylovda ishtirok etishini moliyalashtirish belgilangan tartibda faqat ana shu maqsadlar uchun ajratiladigan davlat mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Siyosiy partiyalarni saylovda boshqa mablag'lar hisobidan moliyalashtirish va moddiy jihatdan o'zgacha tarzda qo'llab-quvvatlash taqiqlanadi".

Ma'lumotlarga e'tibor qaratsak, "2021-yilda bo'lib o'tgan O'zbekiston prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish uchun davlat budjetidan 300 mlrd so'm ajratilgan. Ushbu saylovda umumpartiyaviy tadbirlar va siyosiy partiya tomonidan ko'rsatilgan nomzodlarning saylovoldi tashviqoti va targ'ibot ishlarini amalga oshirishga ajratiladigan mablag'lar – 15 mlrd 486 mln so'm, bunda har bir nomzodga 3 mlrd 97 mln so'mdan to'g'ri kelgan" [28].

Qonunchilik talablariga asosan, saylov jarayonida siyosiy partiyalarni davlat budjetidan tashqari ajratiladigan mablag'lar hisobidan moliyalashtirish qat'iy taqiqlangan. Lekin davlat budjetidan saylov jarayoni uchun siyosiy partiyalarga ajratiladigan mablag'lar ni yetarli deb bo'lmaydi. Shu bois ham siyosiy partiyalar saylovoldi targ'ibot-tashviqot ish-

larini keng ko'lamda olib borish imkoniga ega bo'lmaydilar.

Xalqaro tashkilotlar ham bu borada davlatlarga saylovlarni moliyalashtirish masalasida faqat davlat budjeti mablag'lari emas, balki boshqa manbalarga ham ma'lum qoidalarini qo'llagan holda ruxsat berishni tavsiya qilishgan. Xususan, YXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari byurosining (DIIHB) 2019-yil 22-dekabrda parlament saylovlarini kuzatish bo'yicha missiyasining Yakuniy hisobotida "Partiya va nomzodlarga o'z saylov kampaniyasini moliyaviy rejalashtirishida, jumladan, partiya va nomzodlarga fuqarolardan to'g'ridan to'g'ri xayriya yordamini olish imkonini berish kabi ko'proq erkinlik berish maqsadga muvofiqdir. Qonunchilikda ushbu yordamning hajmi, muddatlari va usuli hamda shaxsiy manbalardan olingan xayriyalar haqida hisobotdorlik talablari tartibga solinishi mumkin" (24-tavsiya) degan tavsiya berilgan [29]. Shunga o'xshash tavsiya ushbu tashkilotning 2021-yil 24-oktabrdagi prezidentlik saylovi-ni kuzatish bo'yicha missiyasining Yakuniy hisobotida ham qayd etilgan (15-tavsiya) [30].

YXHT DIIHBning siyosiy partiyalar bo'yicha ekspertlari tomonidan tayyorlangan rahbariy prinsiplarning 128-bandida "Ko'pincha saylovlar davomida siyosiy partiyalar o'z nomzodlarini qo'llab-quvvatlash, moliyalashtirish va boshqa saylov resurslar bilan ta'minlaydilar. Partiyalar faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari bunday yordam borasida partiyalarga keng erkinlik beruvchi imkoniyatlarni yaratib berishi kerak" [31], degan qoida nazarda tutilgan.

YXHT DIIHBning siyosiy partiyalar bo'yicha ekspertlari tomonidan tayyorlangan rahbariy prinsiplarning 160-bandida quyidagilar ko'rsatib o'tilgan: "Tegishli qonun hujjatlarini ishlab chiqishda YXHTga a'zo davlatlar siyosiy partiyalarni moliyalashtirish bo'yicha bir qator muhim qoidalarini inobatga olishlari mumkin: shaxsiy xayri-

yalarni xususiyati va hajmi bo'yicha cheklash; xususiy moliyalashtirish va davlat tomonidan moliyalashtirish o'rtasidagi muvozanatni saqlash; budjet mablag'laridan foydalanishni cheklash; davlat tomonidan ajratiladigan moliyaviy yordamning adolatli mezonlarini ishlab chiqish; saylovoldi tashviqotiga sarflanadigan xarajatlarni cheklash; partiyalarni moliyalashtirishning shaffofligini va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirish talablarini kiritish; qonunni buzganlik uchun jazo choralarini qo'llash" [32].

1990-yilgi Kopengagen hujjatining 7.6-bandida "Davlatlar saylovlarda adolatli raqobatni ta'minlash, korrupsiya va siyosatdagi nomaqbul ta'sirni kamaytirish maqsadida siyosiy partiyalar va nomzodlarni xususiy moliyalashtirish miqdoriga oqilona cheklovlar qo'yishi mumkin" [31] ligi qayd etib o'tilgan.

Yuqoridagi xalqaro hujjatlar va xalqaro tashkilotlarning tavsiyalaridan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi-ga *siyosiy partiyalarni saylov jarayonida davlat budjetidan tashqari mablag'lar bilan moliyalashtirishga qo'yilgan cheklovlarni bosqichma-bosqich kamaytirish maqsadga muvofiq sanaladi*.

Jumladan, ushbu yangi moliyalashtirish mexanizmini joriy qilishda quyidagi masalalarga e'tibor qaratish taklif qilinadi:

Birinchi, milliy qonunchilikka siyosiy partiyalarni saylov jarayonida xususiy shaxslar tomonidan moliyalashtirishga ruxsat berish orqali fuqarolar, umuman jamiyatning siyosiy madaniyati va faolligini oshirish mumkin.

Ikkinchi, bunday ruxsat berishda oqilona cheklovlarni o'rnatish, shu jumladan, siyosiy korrupsiyani keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan omillarni bartaraf etishga qaratilgan mexanizmlar belgilash, ushbu jarayon us-tidan davlat va nodavlat nazorat mexanizmla-rini o'rnatish zarur.

Uchinchi, fuqarolarning u yoki bu siyosiy harakatni qo'llab-quvvatlashini rag'batlan-

tirish hamda o'ta yirik homiylik mablag'lari ajratishning oldini olish o'rtasida muvozanatni aniq belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Amaldagi milliy saylov qonunchiligida nomzodlar o'z shaxsiy mablag'laridan saylov jarayonlarida foydalanishi taqiqlangan. Bizningcha, ushbu tartibni ham o'zgartirish vaqti kelgan.

Xalqaro tashkilotlar hujjatlarida bu borada davlatlarga quyidagi tavsiyalar berilgan: "Nomzodlar shaxsiy mablag'laridan saylovoldi tashviqoti ehtiyojlari uchun foydalanish huquqiga ega" yoki "Nomzodning shaxsiy xayriyalari korrupsiya yoki boshqa nomaqbul ta'sir sifatida shubha tug'dirmasa ham, qonun chiqaruvchi ularni umumiy saylov xarajatlari tarkibiga kiritish va bu xayriyalar miqdorini majburiy ravishda oshkor etishni talab qilish orqali ularning miqdorini cheklashi mumkin" [33].

Xalqaro standartlardan kelib chiqqan holda nomzodlar shaxsiy mablag'laridan saylovoldi tashviqoti ehtiyojlari uchun foydalanishga haqli ekanligiga oid milliy qonunchilikka o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarur. Bunda nomzodning shaxsiy xayriyalari miqdorini qonunchilik bilan cheklash va ularni umumiy saylov xarajatlari tarkibiga kiritish uchun miqdori hamda manbasini oshkor qilishni majburiy e'lon qilish tartibini joriy qilish maqsadga muvofiq.

Yana bir masalaga e'tibor qaratish zarur. 2024-yilda bo'lib o'tadigan saylovlar aralash tizimda: majoritar va proporsional tartibda o'tkazilishini hisobga olib, moliyalashtirish manbalaridan qat'i nazar mablag'lar faqat partiyaga berilishi tartibini o'rnatish zarur. Shuni inobatga olib, davlat tomonidan saylovga partiyalarga ajratiladigan pullarning yarmini partiyaning o'ziga (proporsional okruglardagi saylovoldi tashviqotini olib borish uchun), qolgan yarmini majoritar

okruglardan ko'rsatilgan nomzodlarga teng ravishda taqsimlashi maqsadga muvofiq sanaladi.

Moliyalashtirish bo'yicha yuqoridagi takliflarning qabul qilinishi o'z navbatida ushbu "o'yin qoidalarini" buzgan siyosiy partiyalar uchun seziluvchan huquqiy ta'sir choralarini qo'llashni taqozo etadi. Ushbu ta'sir choralari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: ma'muriy jarimalar; davlat tomonidan moliyalashtirishdan qisman yoki to'liq mahrum qilish; partiya hisobiga to'langan mablag'larni musodara qilish; partiyaning saylovga nomzodlar ko'rsatish huquqini ma'lum muddatga to'xtatib qo'yish; sud qarori asosida saylovni haqiqiy emas deb topish.

Xulosalar

Yuqorida sanab o'tilganlar siyosiy partiyalar saylov jarayonining subyekti sifatida ularning maqomi bilan bog'liq bo'lgan juda keng vakolatlarga ega ekanligini, ushbu jarayonlarni xalqaro standartlarga muvofiq milliy qonunchilik asosida tartibga solish dolzarbligini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, siyosiy partiyalarning saylov jarayonidagi ishtiroki fuqarolarning siyosiy hayotda, davlat boshqaruvida ishtirokini ta'minlash, demokratik davlatda davlat hokimiyatining birdan bir manbayi bo'lmish xalqning siyosiy irodasini ifodalashning muhim vositasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, aksariyat xorijiy davlatlar singari, siyosiy partiyalarni saylov jarayonining asosiy subyektlaridan biri sifatida tan oladi. Bu, birinchi navbatda, siyosiy partiyalarning ijtimoiy rolini belgilashda, ikkinchidan, saylovlarning har bir bosqichida ularning ishtirokini batafsil tartibga solishda namoyon bo'ladi.

REFERENCES

1. Siyosiy partiyalar rahbarlari bilan fikr almashildi [Opinions were exchanged with leaders of political parties]. Ed. office of "New Uzbekistan" and "Pravda Vostoka" newspapers. 2021, February 2. Available at: <https://yuz.uz/news/siyosiy-partiyalar-rahbarlari-bilan-fikr-almashildi>
2. Rasulova N.S. Siyosiy partiyalar saylov jarayonining muhim subyekti sifatida [Political parties as an important subject of the electoral process]. Available at: <https://aniq.uz/yangiliklar/siyosiy-partiyalar-saylov-jarayonining-muhim-subekti-sifatida>
3. Bekov I. Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida siyosiy partiyalar ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish [Improvement of the organizational and legal basis of the participation of political parties in the activities of representative bodies of state power]. Doctoral Dissertation (DSc). Tashkent, 2021, pp. 86–87.
4. Jo'rayev Q. Rivojlangan davlatlarda ko'ppartiyaviylikning shakllanishi – demokratik taraqqiyotning muhim omili sifatida (Fransiya siyosiy tajribasi misolida) [Formation of multi-party system in developed countries as an important factor of democratic development (as an example of French political experience)]. PhD thesis. Tashkent, 1999, pp. 86–87.
5. Siyosiy partiyalar mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida [Political parties are in the process of modernization of the country]. Sh.X. Fayziyev (Ed.). Tashkent, Institute of Monitoring of Current Legislation, 2009, pp. 4–7.
6. O'sarov O., Saydullayeva D. O'zbekistonda siyosiy partiyalarning jamoatchilik bilan aloqalari [Public relations of political parties in Uzbekistan]. Tashkent, 2014, pp. 16–18.
7. Dubkov V. Mnogopartiynost' kak institut formiruyuschegosya v Uzbekistane grazhdanskogo obschestva [Multi-party system as an institution of the emerging civil society in Uzbekistan]. *Public opinion. Human rights*, Tashkent, 2004, no. 1, p. 90.
8. Yakubov Sh.U. Siyosiy partiyalar faoliyatini huquqiy tartibga solish omillari [Factors of legal regulation of the activities of political parties]. Human rights and humanitarian law: philosophical and legal issues. *Proceedings of the republican scientific-practical conference*. Tashkent, Institute of Philosophy and Law Publ., 2009, pp. 17–18.
9. Yangibayev A.K. Siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati vakillik organlarini shakllantirishda ishtirok etishi [Participation of political parties in the formation of representative bodies of state power]. I.T. Tulteev (Ed.). Tashkent, Academy of Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2019, p. 36.
10. Konoval'chikov Ya.A. Funktsii narodnogo predstavitel'stva kak metodologicheskaya osnova otnosheniy politicheskikh partiy i gosudarstva [Functions of popular representation as a methodological basis for relations between political parties and the state]. *Current theoretical and practical issues in the development of legal science: national and regional aspects*, 2015, no. 1, pp. 112–121.
11. Bogatyryuva L.V. Evolyutsiya roley i funktsiy partiy v rossiskoy politicheskoy sisteme v 2000-ye gody: krizis legitimnosti neizbezhen? [The evolution of the roles and functions of parties in the Russian political system in the 2000s: is a crisis of legitimacy inevitable?] *Bulletin of Perm University. Series: Political science*, 2012, no. 4.
12. Gutorova A.N. Politicheskiye partii v sisteme narodnogo predstavitelstva [Political parties in the system of popular representation]. PhD thesis. Oryol, 2009.
13. Gauja A. Political parties and elections: Legislating for representative democracy. Routledge, 2016.

14. Mikhalyova N.A. Parlamentskiye i prezidentskiye vybory v Rossii [Parliamentary and presidential elections in Russia]. Moscow, 2007, pp. 11–17.
15. Turischeva N.Yu. Pravovoye regulirovaniye uchastiya partiy v vyborakh [Legal regulation of parties' participation in elections]. *State and Law*, 2016, no. 8, pp. 29–39.
16. Bulletin of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, 1997, no. 2, Art. 36
17. Mirziyoyev Sh.M. Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo'lishi kerak [Our parliament should become a school of real democracy, the initiator and main executor of reforms]. *Xalq so'zi – People's Word*, Tashkent, 2017, July, 13.
18. Mirakulov M. Prezident saylovi: milliy va xorijiy tajriba [Presidential election: national and foreign experience]. *Right and Duty*, Tashkent, 2015, no. 2, pp. 24–25.
19. Wigton R. C. The Parties in Court: American Political Parties Under the Constitution. – Lexington Books, 2013.
20. Mersel Y. The dissolution of political parties: The problem of internal democracy // *International journal of constitutional law*. – 2006. – T. 4. – №. 1. – S. 84–113.
21. Lysenko V.I., Zaslavskiy S.Ye. O modelyakh kodifitsirovannogo pravovogo regulirovaniya vyborov: zarubezhnyy opyt [On models of codified legal regulation of elections: foreign experience]. *Electoral Legislation and Practice*, 2019, no. 1, pp. 36–43.
22. Golder S.N. Pre-electoral coalitions in comparative perspective: A test of existing hypotheses. *Electoral Studies*, 2005, vol. 24, no. 4, pp. 643–663.
23. Tillman E.R. Pre-electoral coalitions and voter turnout. *Party Politics*, 2015, vol. 21 (5), pp. 726–737.
24. Ibenskas R. Understanding pre-electoral coalitions in Central and Eastern Europe. *British Journal of Political Science*, 2016, vol. 46 (4), pp. 743–761.
25. Kandyba R.A. Obschestvenno-politicheskiye dvizheniya i izbiratel'nyye bloki v rossiyskom partogeneze [Socio-political movements and electoral blocs in Russian partogenesis]. *Innovative Science*, 2016, vol. 1-3 (13), pp. 183–187.
26. Zaikin S.S. Izbiratel'nyye bloki v Rossii: istoriya i perspektivy razvitiya [Electoral blocs in Russia: history and development prospects]. *Law. Higher School of Economics*, Moscow, 2013, no. 2, pp. 63–72.
27. Petrov A. V. Izbiratelnyye bloki v sibirskikh parlamentakh: korotkaya, no yarkaya istoriya [Electoral blocs in Siberian parliaments: a short but colorful history]. *Second University Social and Humanitarian Readings*, 2008, pp. 511–516.
28. Saylov uchun ajratilgan mablag'lar qanday sarf qilinmoqda? [How are the funds allocated for the election spent?] Ed. office of "New Uzbekistan" and "Pravda Vostoka" newspapers. 2021, October 15. Available at: <https://yuz.uz/news/saylov-uchun-ajratilgan-mablaglar-qanday-sarf-qilinmoqda>
29. Parliamentary Elections of the Republic of Uzbekistan. Final Report of the Election Observation Mission of the Office for Democratic Institutions and Human Rights of the Organization for Security and Cooperation in Europe. 2019, December 22. Available at: <https://www.osce.org/files/f/documents/a/c/452791.pdf>
30. Presidential Election of the Republic Of Uzbekistan. The final report of the Election Observation Mission of the Office for Democratic Institutions and Human Rights of the Organization for Security and Cooperation in Europe. 2021, October 24. Available at: <https://www.osce.org/files/f/documents/1/8/517803.pdf>

31. Guidelines for the legal regulation of the activities of political parties. Adopted by the Venice Commission at the 84th plenary meeting. Venice, 2010, October 15–16. Varshava – Strasburg, 2011, pp. 64–67, 78–80. Available at: <https://www.osce.org/files/f/documents/1/f/81988.pdf>

32. Existing Commitments to Conduct Democratic Elections in OSCE Participating States. OSCE Office for Democratic Institutions and Human Rights (ODIHR). OSCE/ODIHR. Warsaw, Poland, 2004. Available at: <https://www.osce.org/files/f/documents/d/2/13957.pdf>

33. European Commission for Democracy Through Law (Venice Commission). Regulations on Legal Regulation of the Activities of Political Parties. OSCE/ODIHR and the Venice Commission (Ed.). Ad. by the Venice Commission at the 84th plenary meeting. Venice, 2010, October 15–16. Available at: [https://www.venice.coe.int/webforms/documents/default.aspx?pdffile=CDL-AD\(2010\)024-rus](https://www.venice.coe.int/webforms/documents/default.aspx?pdffile=CDL-AD(2010)024-rus)